

# «Korzinka», «Baraka Market», «Makro Supermarket» tarmog'ida Humans VISA Bank kartasi bilan amalga oshirilgan xaridlar uchun 5% li Keshbek» Aksiyasining qoidalari (yangi tahrirda).

25 may 2023 yil.

«Korzinka», «Baraka Market», «Makro Supermarket» tarmog'ida Humans VISA Bank kartasi bilan amalga oshirilgan xaridlar uchun 5% li Keshbek» Aksiyasi (keyingi matnda – Aksiya) «Humans» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Humans Sodiqlik Dasturi doirasida o'tkazilmoqda, manzili: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumkuli ko'ch., 2 B uy, STIR 306624856 (Humans).

## 1. AKSIYA TO'G'RISIDAGI MA'LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalar matnida katta harfdan boshlab yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar mazmuni [www.humans.uz](http://www.humans.uz) Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi Qoidalarida keltirilgan (agar o'zga mazmunlar ushbu Qoidalarda belgilanmagan bo'lsa).

1.2. Aksiya ishtirokchilari – Humans bilan Aloqa xizmatlari bo'yicha Shartnoma tuzgan, shuningdek «Ravnaq-bank» AJ bilan Humans moliyaviy servis xizmatlarini taqdim etish yuzasidan shartnoma tuzgan va uning asosida Ishtirokchi uchun Humans VISA bank kartasi chiqarilgan hamda ushbu Qoidalarning 2 bo'limida aytib o'tilgan harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs Mijozlardan iborat.

1.3. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi

1.4. Aksiya o'tkaziladigan davr yangi tahrirda: 2023-yil 25-maydan boshlab muddatsiz, bekor qilinmagunga qadar.

1.5. To'lov - ushbu Aksiya Qoidalarining maqsadlari uchun To'lov deganda Mijozning Humans VISA bank kartasidan foydalangan holda Tovarlar uchun to'lash maqsadida Sheriklar oldidagi pullik majburiyatni bajarish tushuniladi.

1.6. Aksiya Sheriklari - «Korzinka» va «Smart» brendlari ostida ishlaydigan «Anglesey Food» MChJ do'konlari, shu jumladan Lebazar do'koni orqali sotib olingan Tovarlardir.

«Baraka Market» brendi ostida ishlaydigan «URBAN RETAIL» MChJ do'konlari. «Makro Supermarket» brendi ostida ishlaydigan «DARVOZA SAVDO» MChJ do'konlari. Quyida ko'rsatilgan manzillarda joylashgan "Korzinka" DISKONT supermarketlari aksiyada ishtirok etmaydilar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Yernazar Alakuz ko'chasi, 162-uy va Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri, Maftunkor ko'chasi, 35-uy.

## **2. AKSIYANING TA'RIFI**

2.1. Aksiyani o'tkazish davrida va ushbu Qoidalarga amal qilgan holda, Humans VISA bank kartasidan foydalanib Sheriklardan xarid qilingan Tovarlar uchun To'lov miqdoridan 5% li Keshbek oladilar.

2.2. Aksiyada Humans sodiqlik Dasturining amaldagi Ishtirokchilari bo'lgan va ularning Humans sodiqlik Dasturidagi ishtiroki to'xtatilmagan yoki tugatilmagan Ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

2.3. Ishtirokchi olingan Keshbekdan qat'iyon Humans Sodiqlik dasturi shartlariga muvofiq foydalanishi mumkin va Keshbekni pul shaklida ololmaydi.

2.4. Ishtirokchi olingan Keshbekdan Humans sodiqlik Dasturi shartlariga qat'iyon muvofiq holda foydalanishi mumkin.

2.5. To'lov bekor qilingan (Sheriklardan Tovar xarid qilish bekor qilingan) holda o'tkazilgan Keshbek ham bekor qilinadi va Aksiya Ishtirokchisining Keshbek-hisobidan chiqariladi.

## **3. YAKUNIY QOIDALAR**

3.1. Ushbu Qoidalar Humans Saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans ushbu Qoidalarni bir tomonlama o'zgartirish, Saytga tegishli xabarni joylashtirish orqali bu haqda xabar berish yo'li bilan Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. Xabarnoma sanasi etib Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan sana hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Humans VISA kartasidan foydalangan holda to'lov amalga oshirilishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblangan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozi ekanligini anglatadi.

3.3. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa holatlarda Humans Sodiqlik Dasturining Qoidalariga amal qilinadi.